



Yurtimizda o'suvchi o'simlik turlariga ikkitadan misol ayting.

daraxt

buta

o't

O'simliklarning foydasi haqida fikringizni ayting.



Daraxtlar – tabiat mo'jizasi

Jannatmakon yurtimizning tabiati betakror, o'simlik dunyosi boy. Bunda har bir daraxtning o'ziga xos xislati, xosiyati bor. Deylik, xalqimiz chinorni umrboqiy daraxt deb biladi. Yurtimizning turli joylarida ming yillik chinorlar bor. Ular nodir tarixiy yodgorlik. Masalan, Surxondaryoning Sayrob qishlog'idagi ko'hna chinor ichida bir vaqtlar maktab bo'lgan.

Mamlakatimiz tarixida archa daraxtining bir qancha turlari uchraydi. Tog'larda mahalliy aholi "Cho'ponarcha" deb ataydigan har bir archa – bir quduq qiymatiga teng: qishda qorni, yozda namlikni saqlaydi. Bunday archalar juda nodir bo'lib, nihoyatda qadrlanadi.



Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida tatum (tuz) daraxti o'sadi. Mahalliy aholi tuz daraxti deb ataydigan tabiatning bu ne'mati ajabtovur xislatga ega. Uning mevasini bimalol oziq-ovqatga tuz o'rnida ishlatish mumkin. Dunyoning hech bir joyida uchramaydigan bu "tuz daraxti" mamlakatimizning boshqa biror hududida o'smasligi kishini lol qoldiradi.

Tug'dona daraxti haqida eshitganmisiz? Tug' – yalov, bayroq, dona esa – daraxt ma'nosini bildiradi. Lekin nima uchun tug'dona, ya'ni bayroq daraxt deb nomlanishi ko'pchiligimizga noma'lum.

Rivoyat qilishlaricha, tog' qo'ynida joylashgan mamlakatlarning biriga yov yurish qilibdi. Xabarchilar barcha qishloq, ovullarni xatardan ogoh etib, jangga chorlaydi. Odamlar shu atrofda o'sadigan daraxtlardan kaltak va cho'qmor yasab, Vatan uchun hayot-mamot jangiga kiradi. Hatto qariyalar va yosh bolalar ham qo'llarida daraxt novdalarini bayroq kabi boshlari uzra baland ko'tarib, hayqirganlaricha, jangchilariga madad berishadi. Birgalashib yovni butunlay mag'lub etgan el og'ir kunlarida madad bo'lgan daraxtni e'zozlab, tug'dona – bayroq daraxt deb ataydi. Tug'dona tosh kabi mustahkam daraxt. U toshni yorib chiqib o'sadi. Tug'dona yog'ochidan yo'nib yasalgan do'mbiraning toza va jarangdor tovushi odamlarga kuch, g'ayrat, shijoat, ko'ngillariga orom bag'ishlagan.

("Bolalar adabiyoti" jurnalidan)



1. Matnda qanday daraxt turlari tilga olingan?
2. Surxondaryo viloyatida o'sadigan daraxtlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Tug'dona daraxti haqidagi rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?
4. Tabiatda daraxtlarning kamayib ketishiga nimalar sabab bo'lyapti, deb hisoblaysiz?



yo'nmoq – biror narsani yasash maqsadida kesmoq
ajabtovur – ajablantiradigan
cho'qmor – to'qmoq shaklidagi qadimiy jang quroli



“Shaxmat taxtasi” mashqi. Shifrlangan so'zlarni toping.

4	ch	i	d	g'
3	k	a	e	u
2	n	x	r	o
1	q	y	m	t
	A	B	D	E

1. B3, D2, A4, B3
2. A4, B4, A2, E2, D2
3. E1, E3, E4, D4, E2, A2, B3
4. E1, B3, E1, E3, D1
5. A1, B3, B1, B4, A2
6. A1, B3, B1, D2, B3, E4, E2, A1
7. E1, D3, D2, B3, A3



Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.
 Daraxtlar haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plang va uni do'stlaringizga aytib bering.